

**KOMIL XORAZMIY DEVONIDA MUROJAAT BIRLIKLARI –  
UNDALMALARNING GRAMMATIK VA LINGVOPOETIK  
XUSUSIYATLARI**

**Elyor YULDASHEV,**  
*Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.17488948>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada Komil Xorazmiy ijodida qo‘llangan undalmalarning lingvopoetik imkoniyatlari va ularning ifoda birliklari, ifoda shakllari hamda matnning badiiy-estetik butunligini ta’minlashdagi ahamiyati xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Komil Xorazmiy, lingvopoetika, murojaat birliklari, undalma, yig‘iq undalma, yoyiq undalma, undov so‘z, otlashgan birlik.

XX asrning 20-yillarida boshlangan murojaat birligi sanalmish undalmaga qiziqish hozirgacha davom etib kelmoqda. Jumladan, bu oraliqda ushbu sintaktik birliklar A.N.Kononov, A.G‘ulomov, G‘.Abdurahmonov, A.H.Sulaymonov, X.Doniyorov, A.Yuldashev, A.R.Sayfullayev, B.O‘rinboyev, N.Mahmudov, A.Nurmonov, K.A.Turniyozova, S.Mo‘minov, A.Omonturdiyev, Z.Akbarova, N.Ahmedova kabi olim va olimalar tomonidan o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotchilarning nazariy va amaliy fikr-mulohazalari hozirgacha nashr qilingan darslik hamda o‘quv qo‘llanmalarga kiritib kelindi. Shularga asoslansak, murojaat birliklari dastlab *undash so‘z, undash oti* terminlari bilan, so‘ngra *undalma* termini bilan yuritilib kelinadi [Юсупов, 1979: 18-21]. Demak, *undalma* so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni ifodalovchi va gap bo‘laklari bilan mazmunan bog‘lanadigan, ammo grammatik aloqaga kirishmaydigan sintaktik birlikdir. Yana bir jihatga e‘tiborli bo‘lish lozimki, undalma va murojaat birligi terminlari aynan bir tushuncha-hodisani nomlamaydi, ya’ni ular orasida ma’lum farqlanishlar mavjud: “murojaat birligi birikmasi undalma terminiga nisbatan keng ma’noni ifodalaydi va undalma murojaat birligining – umumiylikning xususiyliigi – xususiy ko‘rinishi hisoblanadi [Ахмедова, 2008: 25]”.

Yana bir jihatga – undalmaning gap bo‘laklari sirasiga kirish-kirmasligi masalasiga ham turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, “o‘zbek tilshunosligida sintaktik shaklning tobe aloqaga kirishi (o‘zaro dominatsiya munosabati) uning gap bo‘lagi hisoblanishining bosh mezoni sanaladi. Undalma esa gap bo‘laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaganligi uchun gap bo‘lagi hisoblanmaydi, u qatnashgan gaplar esa murakkablashgan gap deb qaraladi [Фуломов, 1987: 150]”. Murakkab gaplar yuzasidan tadqiqotlar olib borgan G‘.Abdurahmonov gap tarkibidagi sintaktik shakllarning o‘zaro tobelanish aloqasiga ko‘ra gap bo‘laklariga ajratish asosiga e‘tiroz bildirib, undalmaning o‘ziga xos gap bo‘lagi ekanligini ta’kidlaydi [Абдурахмонов, 1971: 52]. R.Sayfullayeva esa undalmaga xos bir necha grammatik

xususiyatlarni hisobga olib, undalmani ham gap bo‘lagi, ya’ni uchinchi darajali gap bo‘lagi sifatida tadqiq qiladi [Сайфуллаев, 1972: 80]. Shulardan kelib chiqsak, undalma va gap bo‘laklari masalasida ham hali turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, undalmaning so‘z kengaytiruvchisi yoki gap kengaytiruvchisi ekanligi ham munozarali sanaladi. Murojaat birligi sanalgan undalma ba’zi qo‘llanmalarda gap kengaytiruvchisi sifatida izohlansa (“Undalma gap qurilishida eng muhim vositalardan biri hisoblanib, u gap umumiy mazmuni bilan aloqador va hamisha gap kengaytiruvchisi vazifasida kela oladi [Акрамов, 2004: 94]”), 2009-yil nashr qilingan qo‘llanmada quyidagi fikr-mulohazalar qayd qilinadi: “Gap undalma bilan ham kengayishi mumkin. Undalma gap tarkibidagi II shaxs kishilik olmoshi bo‘lgan so‘zshakl ma’nosini muayyanlashtiruvchi unsur bo‘lib, u mantiqan so‘z kengaytiruvchisi maqomida bo‘ladi. Biroq u kengayayotgan so‘z bilan bog‘langanda, grammatik aloqaga ega emas. Undalma mazmunan bog‘langan so‘zshakl nutq yo‘naltirilgan shaxs yoki narsa-predmetni ifodalaydi... Demak, gap lisoniy strukturasiga bevosita daxldor bo‘lmagan, gap tarkibidagi ifodalangan yoki ifodalanmagan ikkinchi shaxs olmoshining so‘z kengaytiruvchisi hisoblanadi [2, 2009: 376]”. Bizningcha, keyingi o‘quv qo‘llanmadagi fikrlar asosli.

Ushbu maqolamizda material birligi sifatida Komil Xorazmiy “Devon”idagi murojaat birligidan undalma tanlangan bo‘lib, ularning badiiy matndagi xususiyatlari tahlil qilingan. Bu jarayonda lingvistik tadqiqot metodlaridan qiyosiy, tavsiflash, asosan, tasviriy metoddan foydalanilgan.

Tadqiqot materiallari tahlili jarayonida tasviriy, tasniflash, lingvopoetik, konseptual kabi metod va usullaridan foydalanildi. “Tasviriy metodning asosiy vazifasi shundaki, u muayyan sinxron aspektga tegishli lisoniy birliklarni, hodisalarni tasvirlash, tavsiflash jarayonida ularni tahlil qilib boradi, tildagi vazifasini, o‘rnini, qo‘llanishini, tuzilishini, o‘ziga xosliklarini aniqlaydi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi [Rasulov, 2010: 257]”.

Undalmalarning o‘ziga xos xususiyatlarini Komil Xorazmiy devonidagi murojaat birliklari ishtirok etgan baytlar (misollar) bilan tahlil qilishga harakat qilamiz. Undalmaning shakliy paradigmasi, asosan, bosh kelishik shaklidagi ot va otlashgan so‘zlar bilan shakllanadi. Shoir nazmida qo‘llangan undalmalar ham ko‘pincha ot turkumiga oid birliklar (*ahbob, atfol, bog‘bon, bulbul, do‘stlar, jono, g‘oziy, Komil, nigoro, mutrib // mutribo, shahim, raqibo, soqiy // soqiyo, voiz, xusravo, zohido* kabilar) yordamida ifodalangan. Masalan:

*Bulbulo*, borsang gulistonlarg‘a qil xoli dilim,

Orazi gulnor-u xoli mushki totoring‘a arz... [7, 82]

*Do‘stlar*, gah behud-u, gah xasta hol o‘lmas ne ayb,

Ko‘zlari ham mast-u, ham bemora oshiq bo‘lmisham... [7, 125] kabilar.

“O‘zbek tili stilistikasi” qo‘llanmasida ta’kidlanishicha, baho xarakteristikasini ifodalovchi undalmalarda “...intonatsiyaning ham roli kattadir. Undalmaning turli intonatsiya bilan aytilishi uning turli ma’no ottenkalari ifoda qilinishini ta’minlaydi. Bu, ayniqsa, undalma undov so‘zlar bilan kelganda yaqqol seziladi [9, 1983: 189]”. Komil Xorazmiy she’riyatida uchraydigan aksariyat undalmali baytlarda otlar oldidan “ey” undovi keltirilib (*ey bog‘bon, ey chobuk, ey dil, ey diliston, ey do‘stlar, ey falak, ey gul, ey hakim, ey hofiz, ey jon, ey ko‘ngul, ey mah, ey Majnun, ey Masih, ey mug‘, ey musavvir, ey nigor, ey pari, ey qumri, ey quyosh, ey sabo, ey sanam, ey shoh, ey Sulaymonim* kabilar undalma orqali jalb qilish ikki barobar kuchaytirilgan:

Mango, *ey bog‘bon*, arz etmagil rayhon-u sunbulni,

Muattar aylamas Komil mashomin emdi har rayhon... [7, 133]

La’ling damodam jon berur o‘lg‘on tanimg‘a, *ey Masih*,

Lek o‘lturur hardam meni bir g‘amzada shahlo ko‘zung... [7, 101] kabi.

Shuningdek, bir o‘rinda *ey* undovining o‘zidan undalma sifatida foydalanadi, bu holatda bugungi adabiy til me’yorlarida qayd qilingan undalma ostidagi shaxsga hurmatsizlik ifodasi shoir qo‘llamida aks etmaydi:

*Ey*, yuzung bog‘i latofat aro guldin ahsan,

Aylasang kokuli mushkin ila sayri gulshan... [7, 189]

Ba’zan shoir undalmalari otlashgan sifatlarga (*bekas, mahvash, dilrabo, fasih, mahvash, malaksifotim, nek-u badim, nozaninim, parivash, qosid, sho‘x, sitamgar* kabi) asoslangan. Masalan:

Ko‘b etma zulm, *ey mahvash*, vujuding

Yoqar gar cheksa o‘tlig‘ oh oshiq... [7, 94]

Qadam qo‘y sarvning boshi uza, *ey sho‘x*, gulshanda,

Ki to bilsun seni bir xisravi oliymakon lola... [7, 146] kabilar.

Ma’lumki, o‘zbek adabiy tili me’yorlarida, odatda, undalma olmosh bilan ifodalanmaydi, lekin bir o‘rinda shoir so‘roq olmoshini undalma sifatida qo‘llaydi. Bu esa olmosh ham murojaat birligi bo‘la olishini isbotlaydi:

Agar oqil esang, *ey kim*, qilibsana dahr mulkin jo,

Ko‘z-u ko‘nglungni moyil qilma mulk molig‘a aslo... [7, 185] Ushbu baytdagi shoir “*ey kim*” undalmasi ostida “kim bo‘lishingdan qat’iy nazar – ey odam bolasi, aqling bo‘lsa, bu dahr mol-mulkiga ko‘z-u ko‘nglungni also moyil qilma, aks holda, aldanib qolasan”, demoqchi bo‘ladi.

Undalma yig‘iq yoki yoyiq bo‘lishi mumkin. Komil nazmida yoyiq undalmalarning salmog‘i ham anchagina. “Yoyiq undalma – o‘ziga tegishli bo‘laklar bilan kengaygan – so‘z birikmasi yoki kengaygan birikma bilan ifodalanuvchi undalma [Yuldashev, 2025: 161]” sanaladi. Masalan:

Mendin qochinglar baxtdek, *ey aysh-u ishrat shohidi*,

Bir sho‘x ko‘nglum mehnat-u kulfatg‘a mu’tod aylamish... [7, 78]

Ashhabing g‘uboridin, ey *Azizi mulki Misr*,

Ko‘zlarim qilib biyno, misli piri Kan’on qil... [7, 113]

Mujda ey, *bulbuli jon*, ul guli ra’no kelajak,

Eshit, ey *qumriyi ruh*, ul qadi zebo kelajak... [7, 99] kabilar. Shoir qo‘llagan yoyiq undalmalar tarkibida moslashuvli birikmalar ham (*aysh-u ishrat shohidi, fuzaloning afzali, xarobot ahli, xo‘blar shohi, saodat axtari* kabilar), bitishuvli birikmalar ham (*gul yuzli mutrib, mahvash sanam, zebo nigor* kabilar), forsiy izofali birikmalar ham (*ahli jamol, ahli vasl, Azizi mulki Misr, bulbuli jon, qumriyi ruh, dilbari ra’no, guli xandon, guruhi nodonlar, Komili mahzun, mahbubi zebo, nigori gulruksor* kabilar) uchraydi. Bularning har biriga birgina misol bilan kifoyalanamiz: Lek so‘zimga tut quloq, ey *fuzaloning afzali*, Dahr tarabgahi base dilkashu xo‘b erur vale, Xayfki, yo‘qturur oning ishrati jovidonasi... [7, 182] banddagi yoyiq undalma moslashuvli – qaratqich aniqlovchisi bilan kengaygan; Kel, ey *gul yuzli mutrib*, bu kecha majlis aro soz et, Burun boshlab “Iroq” u so‘ng maqomi “Rost” og‘oz et... [7, 36] baytida esa yoyiq undalma bitishuvli – sifatlovchi aniqlovchisi bilan kengaygan; Husni ko‘zgusi bordur mazhari jamolilloh, Man’i ishqim etmonglar, ey *guruhi nodonlar*... [7, 61] baytida yoyiq undalma forsiy izofali birikma bilan ifodalangan. Shuningdek, Komil o‘z she’riyatida yoyiq izohli undalmalardan ham samarali foydalangan:

*Ey la’li labing chashmayi hayvoni malohat,*

*Vey naxli qading sarvi xiromoni malohat*... [7, 32]

Deyolmas arzini juz haq taolog‘a bu bechora,

*Adolat taxtgochi uzra sohibi adl-u xoqonim*... [7, 172]

Duoyi davlatingdur haq janobig‘a munojotim,

*Valiyi ne’matim, pushtu panohim, darda darmonim*... [7, 172]

Ilohi hosil etsun baxt ila davlat murodingni,

*Labib-u nuqtadonim, donish iqlimida sultonim*... [7, 171]

Karimi lam yazal altofi bo‘lsun yor-u hamrohing,

*Mahi bayzobjabinim, lablari gulbargi xandonim*... [7, 171] kabi.

Shoir ijodida bunday yoyiq izohli murojaat birliklari salmoqli miqdorni tashkil etadi. Bu fikrni “Qadi sarvi xiromonim, labi gulbargi xandonim [7, 171]; ey labi jonbaxsh ikki ko‘zi qotillar [7, 191]; Shahi donishpanohim, ilmi hikmat ichra Luqmonim [7, 172]; ey kamtar sanoxonim, Chu Yusuf Misr izzat masnadida mohi Kan’onim [7, 171]; Ey la’li labing mening hayotim, Chashming dog‘i boisi mamotim [7, 130]; Ey naqdi ishqinga dil-u jonim xazinalar, Dard-u g‘aming xadangining omochi siynalar [7, 59]; Ey, masdari kibr-u mazhari noz [7, 214]; Ey, soching, jon

qushlari qaydig‘a mahkam silsila [7, 180]; Yuzi, ey makramat avji uza tobanda xurshidim [7, 173]” kabi murojaat birliklarining qo‘llanganligi ham dalillaydi.

Ilmiy manbalarda qayd qilinishicha, undalma tarkibida kelgan *-m (-im)* – I shaxs egalik shakli murojaat birligiga “undalma ostidagi shaxs va predmetni suyish, erkalash, yaqin olish” ma‘nolarini yuklaydi. Bunday egalik shakli bilan kelgan undalmalarni Komil she‘riyatida ham shu mazmunda tushunish mumkin:

Rahm eting, *do‘stlarim*, holima, ko‘b zor o‘ldum,  
Bir sihi sarvi sumanbarg‘a giriftor o‘ldum... [7, 209]

Mo‘rdek ojiz etdi hijroning

Holima rahm et, *ey Sulaymonim*... [7, 128] kabilar.

Ma‘lumki, milliy tilimizda undalmaning o‘rinlashishi erkin, ya‘ni u gapning xohlagan o‘rnida kelishi mumkin. Lekin bunda undalmadan ko‘zlangan maqsaddan kelib chiqib, ikki xil holat farqlanadi:

a) agar shoir undalma orqali lirik qahramonni jalb qilishni maqsad qilsa, murojaat birligi misra (gap) boshida keltiriladi:

*Do‘stlar*, gah behudu, gah xasta hol o‘lmas ne ayb,  
Ko‘zlari ham mast-u, ham bemora oshiq bo‘lmisham... [7, 125]

*Soqiyo*, bazmim aro bodayi gulfom ketur,  
Masti loya‘ql o‘lurg‘a ko‘zi shahlo kelajak... [7, 100]

*Mutribo*, chertib rubob-u barbat-u tanbur-u nay,  
Sozni tark etma o‘yinini qo‘ymog‘uncha to Avaz... [7, 83] kabi;

b) agar shoir undalma orqali jalb qilish bilan birga, subyektiv bahoni maqsad qilgan bo‘lsa, murojaat birligini misra (gap) o‘rtasida yoki oxirida qo‘llaydi:

Kelmaging hamon bazmim ichra ketmaging dog‘i  
Umrdek nedin, *jono*, odating shitob o‘lmish... [7, 79]

O‘zga nozaninlarga boq demang manga, *ahbob*,  
Ishqida meni ul gul ustuvor etib ketti... [7, 158] kabilar.

Ammo ushbu maqsadga bog‘liq o‘rinlashish hamisha ham o‘zini oqlamaydi. Chunki undalmadan oldin “*e, ey, hey, hay, hoy*” kabi imperativ undovlar kelsa, yuqoridagi qoidalar amal qilmaydi. Bunda undalma misraning qaysi o‘rnida kelishidan qat‘iy nazar diqqatni jalb qilish ikki barobar kuchaytiriladi. Ushbu jihat Komil nazmida juda ham faol qo‘llanilgan:

Ko‘rsatma otashin guling, *ey bog‘bon* mango,  
Ul sarv ustida guli norim qizil libos... [7, 74]

Hijronda ko‘p yig‘lading vaslida, *ey dil*, kul bukun,  
Sol shodlig‘din gunbazi gardon aro g‘ul-g‘ul bukun!.. [7, 187]

Mumtoz adabiyot namunalarida bo‘lganidek, undalma orqali shoirning o‘z-o‘ziga murojaati Komil g‘azaliyotida ham (30 dan ortiq o‘rinda) uchraydi. Bunday

o‘rinlarda istifoda etilgan *Komil* ba‘zan lirik qahramon, ba‘zan lirik qahramon hamrohi, ba‘zan umumlashma timsol – dono maslahatchi (nasihatgo‘y) vazifasida gavdalanadi:

Emdi yon rashk o‘tig‘a, *Komil*, bu so‘zlardin ne sud,  
Chun yoningda yo‘qdurur, bilg‘on oni ag‘yor ila... [7, 150]

Yona uch yil umr boqi bo‘lsa gar, *Komil*, sango,  
Yozg‘il oning soli tarixin shumori Toshkand... [7, 216]

Nihon dut zinhor asroringni *Komil* munofiqdan,

Ki zohir do‘st, botin dushmani hamrozlardurlar... [7, 57] kabilar. Shuningdek, badiiy matnda taxallus ham o‘ziga xos poetik vazifa bajarib kela olishi, mumtoz adabiyotimizda *ittifoq* deb ataluvchi she‘riy san‘at mavjudligi, bunda she‘rda shoir taxallusining ham o‘z lug‘aviy ma‘nosida, ham taxallus sifatida ishlatilishi nazarda tutilishi, ya‘ni shoir maqta‘da o‘z taxallusini keltirish barobarida bayt mazmunidan uning lug‘aviy ma‘nosi ham faollashgani anglashilib turadi:

Toparman dard-u g‘amdin ko‘yinga kirgon zamon maxlas,  
Ne til birla deyin, *Komil*, oni “dorul-amon ermas”... [7, 75]

Nutqimizda undalmalar ajratilishi ham mumkin, ya‘ni unda “undalma boshqa undalmalar orqali izohlanadi. Bu holda shaklan uyushgan undalmalar vujudga kelib, so‘nggi undalmalar birinchi, asosiy undalmani izohlaydi [11, 1976: 262]”. Shoir nazmda ham bir o‘rinda murojaat birligining ajratilganligiga guvoh bo‘ldik:

Necha yil vasli ishratgohida masti mudom etding,  
Ko‘z-u ko‘nglumni bazming ichra chun minou jom etding.

Nedin so‘ngra yana hijron aro subhimni shom etding?

*Afandim, mehribonim, sevdugum, jonim, go‘zal xonim*... [7, 171]

Shoir ushbu to‘rtligining dastlabki misralarida ma‘shuqa o‘z sevgilisining jamolidan bahramand bo‘lib, qalban muhabbat sharobidan mast bo‘lganligini tasvirlaydi. Keyingi misraga kelganda nimagadir ma‘shuqa yana oshiqning baxtli onlarini zulmatga aylantiradi va bundan ajablangan lirik qahramon sevgilisiga murojaat qiladi: “*Afandim, mehribonim, sevdugum, jonim, go‘zal xonim*”. Ushbu misradagi “*afandim*” asosiy undalma bo‘lib, undan keyingi “*mehribonim, sevdugum, jonim, go‘zal xonim*” birliklari shu undalmaning ajratilgan izohlari sanaladi. Aslida “afandi” epiteti o‘zbek tili amaliyotida ko‘proq erkaklarga murojaatda qo‘llansa-da, undagi ulug‘vorlik, hurmat va ehtrom bildiruvchi semalar yor tasvirini shakllantirgan boshqa murojaat birliklarini umumlashtirib kelishga asos bo‘la olgan.

*Komil* Xorazmiy devonidagi undalma – murojaat birliklari tahlilidan kelib chiqib, yuqoridagi fikr-mulohazalarni quyidagicha xulosalash mumkin:

1) shoir ijodida undalma, ya‘ni murojaat birliklari shakliy paradigmasiga ko‘ra, asosan, ot va otlashgan sifatlar bilan, tuzilishiga ko‘ra yig‘iq va yoyiq undalmalar

(moslashuvli, bitishuvli, izofali undalmalar, qolaversa, yoyiq qurilmalar bilan ifodalangan undalmalar) faol qo‘llanilgan;

2) shoir undalma orqali jalb qilishni maqsad qilgan holatlarda murojaat birligini misra (yoki bayt) boshida keltiradi, jalb qilishni kuchaytirishni maqsad qilgan holatlarda esa undalma oldidan *ey* undov so‘zini keltiradi, agar undalma orqali jalb qilish bilan birga subyektiv baho yuklashni maqsad qilgan bo‘lsa, murojaat birligini misra (bayt) o‘rtasida yoki oxirida keltiradi (bular qaysidir ma’noda undalma bilan bog‘liq bugungi me’yorlar shakllanishiga zamin bo‘lgan);

3) devondagi murojaat birliklari *nominativ* (shoir tinglovchini o‘zaro aloqa jarayoniga mos bo‘lgan murojaat birligi bilan nomlash vazifasi), *apellyativ* (bu xitob, murojaat qilish – har qanday vaziyatda so‘zlovchi tinglovchining diqqatini tortish vazifasi), *kommunikativ* (yakka shaxsga yoki ommaviy tarzda aloqa o‘rnatish, kontakt vazifasi), *konnotativ* (so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan shaxsiy – subyektiv munosabatlarini: hurmat-e’tibor, yaqinlik, erkalash, g‘azab, nafrat, haqorat kabi salbiy va ijobiy munosabatlar ifodalash vazifasi) hamda *emotiv* (shoir o‘z his-tuyg‘ulari: xursandlik, qo‘rquv, tushkunlik, norozilik kabilar, his-hayajoni kabi emotsional holatlar ifodasi) vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan, deyish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulov Ravshanxo‘ja. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2010. –B. 257.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
3. Yuldashev D.T. Hozirgi o‘zbek adabiy tili sintaksisi. – Urganch: Khwarezm publication, 2025.
4. Абдурахмонов Ф.А. Синтаксис осложненного предложения. // Структура и история тюркских языках. – М., 1971.
5. Акрамов Ш., Бошмонов М., Мамадиева М. Ҳозирги ўзбек адабий тили (синтаксис) фанидан конспектив курс. 1-қисм. – Фарғона, 2004.
6. Аҳмедова Н.Ш. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008.
7. Комил. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975.
8. Сайфуллаев А.Р. Ўзбек тили содда гап қурилишида учинчи даражали бўлақлар: Филол. фан. докт. ...дисс. – Тошкент, 1972.
9. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
10. Юсупов К. Синтактик терминлар тарихидан. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1979. – №1.
11. Ўзбек тили грамматикаси. Синтаксис. II том. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1976.
12. Гуломов А., Аскарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987.